

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 2 (67271)
2020-yil 13-yanvar

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

VATAN QALBNING TO'RIDADIR!

*Biz Ona yurt posbonlari,
Ko'ngli osmon o'g'lonlari.
E'zozlaymiz tuprog'imiz,
Hilpiraydi bayrog'imiz!*

*Vatan qalbning to'ridadir,
Muhabbatning qo'lidadir.
Finchlik erur unga posbon,
Gullayapti O'zbekiston!*

AXTAMQULI



MAKTAB BAYROQDORI

bu nomga qanday o'quvchi sazovor bo'ladi?

Aziz o'quvchilar! 3-chorakning avvalida Siz uchun ajoyib yangilik bor. Chorakning birinchi kundan boshlab yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablarining 5–11-sinf o'quvchilari o'rtasida «Bayrog'imiz – faxrimiz» tadbirlari tashkil etiladi. Sizing davlatimiz bayrog'iga nisbatan hurmatingizni oshirishga, qalbingizda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiluvchi mazkur tadbir ishtirokchilarini aniqlash haftaning juma va shanba kunlari ochiq ovozga qo'yish orqali belgilanadi. Bunda sinf sardori o'quvchilar orasidan hafta davomida a'lo baholarga o'qigan, xulqi bilan namuna bo'lgan bir nafar o'quvchini tavsiya etadi. Maktabdagi tashkiliy guruh tomonidan barcha sinflardan ko'rsatiladigan nomzodlarning

iqtidori, erishgan yutuqlari tahlil qilinadi va eng ko'p ovoz to'plagan bir nafar o'quvchi tanlab olinadi. G'olib o'quvchi haftaning dushanba kuni bayroqni ko'tarib, barcha o'quvchilar jo'rligida Davlatimiz madhiyasini kuylaydi.

Yil yakunida o'quv yili davomida eng ko'p bayroq ko'targan o'quvchi maktab direktori tomonidan «Maktabimiz bayroqdori» maxsus diplomi bilan taqdirlanadi.

Demak, barchangizni harakatga chorlab, omad tilaymiz, bo'lajak bayroqdorlar!

Sayyora QODIROVA

Tong
otdi.
Zuhro
yulduzi mil-
tiragancha
ko'zdan g'oyib
bo'ldi. Qush-
lar esa tongni
qarshilab
chug'urlash-
moqda.



TUPROG'ING KO'ZIMGA TO'TIYO, VATAN!



Ishxonaga o'tlanib soy yoqalab borar ekanman, suvning shildiragan ovozidan ham tinchlik va osoyishtalikning shukronasini o'qigandek bo'laman. G'izillab o'tayotgan mashinalar, manziliga oshiqayotgan odamlar, hovlilarda chopqillab yurgan bolakaylar, beshikda orom olayotgan go'dak – barchasi tinchligimizdan dalolat.

Ayting-chi, bu osoyishtalikni ko'rib, yurt sarhadlarini kecha-yu kunduz qo'riqlayotgan Vatan himoyachilariga ofarin aytmay bo'ladimi? Muqaddas zaminimizni asrash uchun To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubrodek ajdodlarimiz jonlarini qalqon qilganlar. Bugun ham dovyurak o'g'lonlarning qalbidagi yurtga sadoqat hissi limmo-lim.

Yo'l-yo'lakay qo'shnim bilan suhbatlashar ekanman, uning so'zlaridan ta'sirlanaman:


– Bilasizmi, askar o'g'limning maktubini ko'zlarimga surib, ko'ksimda ardoqlayman. Xatni qayta-qayta o'qiganim uchun uning har bir satri menga yod bo'lib ketgan.



Askar onasining ko'zida mavjlangan ikki tomchi yoshni ko'rib, o'ylayman, bu baxtdan masrurlik yoshi, shukronalik, farzandan mamnunlikning nishonasidir. 14-yanvar kuni arafasida yurtimizdagi jamiki Vatan himoyachilari bo'lgan – askar, chegarachi-yu posbonlarni bayram bilan muborakbod etib, ularga rahmat aytgim keladi.

Tursunoy HASANOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Rivoyat qilishlaricha, bir mamlakatga dushman bostirib kirib, barchani garovga olibdi. So'ngra podshoga, garovdagilarning evaziga sevimli tulporingni berasan, deb shart qo'yibdi. Podsho tulporidan voz kechibdi. Biroq yovuz dushman undan suyuqlik kanizagini ham so'rabdi. Vazirlar qarshiligiga qaramay podsho uni ham berib yuboribdi. Va'dasiga vafosiz qilmas dushman yana tahdid solib, mamlakatning bir parcha yerini so'rabdi. Vazirlar podshoga: «Bir qarichgina yer ekan, berib yuboraylik, shunda tinchiymiz», deyishibdi. Lekin dono va oqil podsho shunday debdi: «Tulpor topiladi, otxonada toychoqlar talaygina, kanizak ham topilgay, saroyimizda ne-ne go'zallar bor. Biroq ona yurt tuprog'ini dushmanga bermagayman. Bu tabarruk zamin ota-bobolarimizdan biz uchun meros-ku!.. Uni bergandan ko'ra dushman bilan jang qilib, mardlarcha halok bo'lganim afzal», deya jangga kirib, sodiq va vafodor qo'shini bilan g'alaba qozongan ekan.



YIGIT OMON BO'LSA,
XAVF-U XATAR YO'Q!

Vatan – inson kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois, inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan go'shasiga mehru-muhabbatli, sadoqatli bo'lishi lozim. Farzandlik mas'uliyatini his qilib yashashi har bir komil inson uchun ham qarz, ham farzdir. Tarixga nazar solsak bobolarimiz Vatan uchun jonlarini fido qilganlar, uning hurligi, tinchligi yo'lida kurashganlar. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi xalqimizning mard o'g'lonlari ona yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan himoya qilish uchun mardonavor kurashishgan. Amir Temur esa Vatan farovonligi, obodligi, tinchligi yo'lida buyuk ishlarni amalga oshirgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Munavvarqori singari bobolarimiz esa millatning ertasi, taraqqiyot yo'lida shahid bo'lganlar. Ularning hayoti bugunning yoshlari uchun ibratdir.

Bobolarimiz bugungi dorilamon kunlarni orzu qilib yashashgan. Ne baxtki, bizga shunday tinch, osuda zamonda, farahbaxsh kunlarda yashash nasib qildi. Shoir G'afur G'ulom o'zining «Yigitlarga» degan she'rida shunday satrlarni keltiradi.

**Yigitlar xalqlarning maqtovi, ko'rki,
Naslning javhari, davlat tayanchi.
Yurtning obodligi, to'ylar sababi,
Elning gurkirashi, fayzi, quvonchi,
Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q!**

Darhaqiqat, yigitlar yurtning, xalqning tayanchi, himoyachisi bo'lib hisoblanadi. Ona Vatanimni chin dildan sevadigan, ardoqlaydigan, yuragida Unga bo'lgan muhabbat hissi jo'sh urib turadigan yigitlarga uning haqiqiy himoyachisi degan sharafli nomga munosib bo'la oladi. Yurt tinchligi uchun sidqidildan xizmat qilishadi. Qasamyodiga sodiq qoladi, or-nomusini saqlaydi, har qanday vaziyatda muqaddas tuprog'ini begonalarga berib qo'ymaydi.

Islom ASILBEKOV,
O'zJOKU talabasi

KITOB SOVG'A QILISHDI




Ingiliz tili to'garagining navbatdagi mashg'ulotida edik. Ustozimizning taklifiga ko'ra hammamiz maktab foyesiga yig'ildik.

Bilim dargohimizga tashrif buyurgan mehmon – tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri Ildorbek Umirov bizga badiiy kitoblarni sovg'a qildi. Mamlakatimiz Prezidentining: «Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz! 2020-yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi», degan so'zlari har birimizning ezgu maqsadlarimizga turtki bo'lishini ta'kidlab, bizni yaxshi o'qishga, komil inson bo'lishga chorladilar. Bu chorlovga mening javobim shunday: «Men Yoshlar ittifoqining a'zolaridan biriman. A'lo baholarga o'qib, kelgusida tinch va farovon yurtim taraqqiyotiga o'z hissamni qo'shaman, deya va'da beraman».

Osiyo MA'RIFJONOVA,
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 16-umumta'lim maktabining
6-«A» sinf o'quvchisi

URUSHDAN AZIYAT CHEKKAN BARCHA BOLALARGA BAG'ISHLANADI



«Avvallari hayotimiz tinch-osuda edi. Bugun esa o'zgalari xatosining badalini to'layapmiz. Tinchligimiz bilan birga bolaligimiz ham yo'qoldi. Endi maktabda, ko'chalarda bolalar kulgusi eshitilmaydi. Bizning har bir kunimiz hayot uchun kurashish bilan o'tmoqda. Ochlik, nochorlik ortimizdan ergashadi. Tunda uyquga ketgan minglab insonlarga tongni ko'rish nasib etmayapti. Uyqu oldidan tinglaydigan onalarimiz allasi o'rnini kimlarningdir boshiga kulfat bo'lib yog'ilyotgan bombalarning dahshatli ovozi egallagan. Qo'rquv hissi ong-u shuurimizga singib ketgan. Biz orzu qilishdan qo'rqib qoldik. Tongda kuzatgan yaqinimizni qayta ko'rolmay qolishdan, bu dahshat qachondir yana va yana eshik qoqishidan qo'rqamiz.

BOLALIGIDAN

JUDO

BOLALAR

Bas qiling! Hoziroq barchasini to'xtating! Bundan buyon bitta ham o'q otilishini istamaymiz. Bizning orzularimiz bisyor, bizda maqsad bor. Biz kelajak poydevorimiz. Bizning olamimizda urushlarga o'rin yo'q. Biz qurol tutgan qo'llar kitob ushlashini, o'qlar o'rnini qalamlar egallashini, olomon hayqirig'i bayram kuyiga, yig'i ovozlari kulguga, nafrat esa muhabbatga aylanishini istaymiz.»

OCHLIK

Gordfrey hozirda 16 yoshda. U Janubiy Sudanda isyonchilar tomonidan otasining o'ldirilishiga guvoh bo'lgan. Gordfrey boshqa yaqinlari bilan Ugandadagi qochoqlar lageri tomon yo'lga tushadi:

«Urush sabab Sudanni tark etishga majbur bo'ldik. Otam davlat ishida ishlagani uchun isyonchilar tomonidan o'ldirildi. Omon qolgan yaqinlarim bilan yo'lga chiqdik. Yo'lga tamaddi qilish uchun yeguligimiz ham, ichish uchun suvimiz ham yo'q edi. Bilibilidagi qarorgohgacha uch hafta yo'l yurdik. Kichkina jiyanim yo'lidagi qiyinchiliklarga dosh berolmadi...».

Ismoil urush dahshatini 7 yoshidayoq chuqur his etdi. Qiruvchisi samolyot yo'llagan raketa Ismoil va uning do'stlari ketayotgan maktab avtobusiga borib urildi. Hujum natijasida 40 nafar bola vafot etdi. Ismoil bosh va oyog'idan qattiq jarohat oldi. Bir necha jarrohlik amaliyoti-yu yaqinlari ko'magida bolakay yana oyoqqa turdi.



ISMOIL HIKOYASI

«Raketa kelib urilganida nima bo'layotganini tushunolmay qoldim. Bir do'stim jon berdi, yana biri nogiron bo'lib qoldi. Shifoxonada hushimga keldim. Biroq, ko'zlarim ko'rmay qolgandi. 2-3 haftadan keyingina xira bo'lsa ham ko'ra boshladim. Kelajakda do'stlarim, barcha yaqinlarim uchun shifokor bo'laman.»

ASMAANING QOCHISHI

Asmaa 14 yoshdoyoq qochoqlikning barcha azob-uqubatlarini to'tib ko'rdi. Onasining vafotidan so'ng, Asmaa 7 nafar uka-singillari bilan Suriyadan Livanga qochib o'tishga qaror qiladi. Biror yaqinlari bo'lmagani sabab ukalari xavfsizligining bor mas'uliyati Asmaaning yelkasiga tushadi. Bolalar chegarani kesib o'tish uchun to'rt marotaba urunadilar. Biroq, har gal urinishlari besamar ketadi. Nihoyat, ular yul mashinasiga yashirinib, chegaradan o'tib oladilar. Livangacha tog'lar orasida uch kun sarson bo'lishgach, manzilga yetib keladilar. Boshdan kechirgan azob-uqubatlar bolalar xotirasida unutilmas dahshat bo'lib bir umrga saqlanib qoldi.

Asmaa: «Kichik ukam otishma boshlanganida qo'llari bilan quloqlarini mahkam berkitib olardi. Shunday bo'lsa-da, har bir o'q ovozi uni sapchib tushishga majbur qilardi.»



Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'yicha 420 million bolalar xavfli urush hududlarida yashaydilar.

Urush sababli oila va yaqinlarini yo'qotgan bolalarning ko'pchiligi turli qurolli guruhlariga qo'shilishiga majburlanganlar. Ular orasida ming afsuski, 10 yoshdan kichik bolalarni ham uchratish mumkin.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV tayyorladi

Buyuk fazilatlarga ega bo'lish yetarli emas,
ulardan foydalana bilish ham kerak.
F. LAROSHFUKO

Tong
yalduzi

QO'RIQLAYMIZ ONA VATANNI!

Sardoba tumanidagi 14-umumta'lim maktabida 8-«A» sinf o'quvchilari ishtirokida «Kelajakda askar bo'lamiz, qo'riqlaymiz ona Vatanni!» nomli tadbir tashkil etildi.

Tadbirni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Abduvali Mahmudov ochib berdi. Xalqimizda qahramonlik, jasorat nihoyatda qadrlanishini, ana shunday hurmat-e'tiborga sazovor bo'lish uchun har birimiz yoshlikdan qahramonlik,

mardlik va jasoratli bo'lishga intilishimiz lozimligini ta'kidladilar. 8-«A» sinf o'quvchilari Ruxshona Omonkeldiyeva va Abdumomin Abdukarimov Vatani, mardlik, jasorat haqidagi she'rlarni ifodalaydilar. Yoshlar ittifoqi yetakchisi Dildora Tolipova va CHYOT o'qituvchisi Abdurasul Shukurov o'quvchilarning

turli yo'nalishdagi harbiy mashqlarni namoyish etishida hakamlilik qilishdi. Bu tadbirni tomosha qilgan o'quvchilarda vatanparvarlik, Vatanga bo'lgan muhabbat hissi uyg'onishi, tabiiy.
Sunnatilla USANBOYEV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

8-sinf o'quvchisi
Atxambek OMONKELDIYEV: – Eng buyuk qasam ona yurtga bo'lgan sadoqatdir.

«YANGI AVLOD» OLIMPIADASI

Mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 3-maydagi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi hamda Andijon davlat universiteti hamkorligida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-4-sinf o'quvchilari o'rtasida boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha «Yangi avlod» nomli olimpiada tashkil etildi.

Olimpiadani o'tkazishdan ko'zlangan maqsad boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan iqtidorli, bilimdon, zukko o'quvchilarni aniqlash, ularning ijodiy faolligini oshirish, o'rtalarida do'stona munosabatlarni mustahkamlashdir. «Yangi avlod» olimpiadasi ona tili, o'qish, matematika, tabiatshunoslik fanlari bo'yicha uch bosqichda tashkil etildi.

Olimpiadaning baholash mezonlari DTS asosida

amalgam oshirildi.


Maktab, tuman bosqichida g'olib bo'lgan o'quvchilar



viloyat bosqichida ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

– Men Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qiyman, – dedi 3-«A» sinf o'quvchisi Dilzoda Poziljonova. Matematika fanini ustozim Komilaxon Azimovadan qunt bilan o'rganyapman. Bu olimpiadada g'olib bo'lib, keyingi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritdim. Ta'tilda ham to'garakka qatnab, ko'plab misollar, mantiqiy

savollarni javobini topishga harakat qildim. Ushbu fanni puxta o'rganib, keyingi bos-



qichda ham go'lib bo'lishimga ishonaman.

«Yangi avlod» olimpiadasi Qo'rg'on tepa, Izboskan va Xo'jaobod tumani vakillari yuqori natijalarni qo'lga kiritdilar.

Nigora ISOQOVA,
Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi metodik xizmat bo'lim boshlig'i,
Dilorom IMINJONOVA,
Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

«MEHR KO'ZDA» TANLOVI BO'LDI


Yaqinda maktabimizda «Mehr ko'zda» nomli matnlar tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovda bir-biridan ma'noli, ta'sirli matnlar gulchambari qalbmizni egallab oldi.

Quyida ana shu mavzuda yozilgan mualliflarning ijodiy ishlarini siz aziz gazetxonlar e'tiboriga havola qilishni lozim topdim.

Madina BAXSHILLOYEVA,
«Yangi asr avlodi» to'garagi rahbari

YAXSHILAR BOR EKAN...

Hayot insonga berilgan bebaho ne'mat. Uning har damini g'animat bilib yashash kerak.



Ertalab sog'-salomat ko'zingizni ochganingizga shukur qiling. Zero, kechqurun yotib, ertalab ko'zini ochmaganlar qancha. Balki kimlardir yurishga erinar. Vaholanki, yurishni, bir qadam bosishni orzu qilib yashaydiganlar qancha... Doimo bir yerda qimirlamay o'tirish juda qiyin. Shunday bo'lsa-da, imkoniyati cheklangan bunday bolalarning murg'ak qalbidagi umid uchqunlari so'nmaydi. Umid bilan yashashadi. Ularning orasida jahon chempionlari ham bor. To'rt muchasi sog' bo'la turib, jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganlar, bilib-bilmay huquqbuzarliklar qilayotganlar ham oramizda bor. Ko'ngilga taskin beradiganlari ular ozchilik. Yaxshilar esa juda ko'p.

Yaxshilar bor ekan, ko'ngli o'sik bolalarning yuzlaridagi tabassum, qalblardagi umid hech qachon so'nmaydi.

Madina BOTIROVA,
8-sinf

Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-DIUM o'quvchilari

Akram ASLONOV,
9-«A» sinf



Diyor AXTAMOV, 5-«B» sinf o'quvchisi

GO'ZAL TUYG'U

Inson ko'ngli, uning mehri cheksiz bir dunyo. Mehr insonning ko'zi, so'zi va dilida yashirin bo'ladi.

Bu tuyg'u inson qadr-qimmatining emas, ichki go'zalligi, qalbidagi yashirin bo'lgan pok va samimiy tuyg'ularining hosildir. Mehr qalblarni birlashtirish va ular orasidagi muhabbat tuyg'usidir. Mehr hissi inson qalbidagi eng kichik bir zarracha bo'lsa ham, u ko'ngilni sevgi va muhabbat bilan to'ldirib, quyoshga aylanaadi.

INTERESTING FACTS

A laser can get trapped in water

Yes, really. A cool thing called total internal reflection is applied when pointing a laser beam through a container of water. When light travels through water, it's slowed by the heavier particles in water. Thus, the laser beam effectively gets «trapped» in the water.



Earth's oxygen is produced by the ocean

Ever stopped to think where oxygen comes from? Your first thought may be a rainforest, but marine organisms take the bait. Plankton, seaweed and other photosynthesizers produce over half of the world's oxygen. We know the answer to this and other fun science facts, but here are other ocean mysteries that scientists can't explain.



Animals use Earth's magnetic field for orientation

Lost land animals may not be able to find their way home, but sea animals might. According to the U.S. Geological Survey (USGS), «there is evidence that some animals, like sea turtles and salmon, have the ability to sense the Earth's magnetic field and to use this sense for navigation».

A cloud can weigh over a million pounds

Your childhood dreams of floating on a weightless cloud may get rained on with this fact: the average cumulus cloud can weigh up to a million pounds. A million pounds! That's about as heavy as the world's largest passenger jet. Before you hop on a plane it's important to check the weather-here's how to predict the weather by these types of clouds.




There are more trees on Earth than stars in our galaxy

NASA experts believe there could be anywhere from 100 billion to 400 billion stars in the Milky Way galaxy, Snopes reports. However, a 2015 paper published in the journal Nature estimated that the number of trees around the world is much higher: 3.04 trillion




TONGUE TWISTERS

If two witches were watching two watches:
which witch would watch which watch?



I saw a kitten eating chicken in the kitchen.

The great Greek grape growers
grow great Greek grapes



She saw Sharif's shoes on the sofa.
But was she so sure those were
Sharif's shoes she saw?



Internet sources

Hayotdagi birdan bir baxt –
bu doimo olg'a intilish.

E. ZOLYA

CHUSTNING HUNARMAND YOSHLARI

Namangan viloyati, Chust tumanidagi o'quvchilarning aksariyati tuman «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot maktabiga qatnaydi. Hunar o'rganish ishtiyqidagi bolalarning ayni ta'til kunlarida ham o'ziga yarasha yumushlari bisyor bo'ldi.

N. Qudratova boshchilik qilayotgan ushbu maskanda iste'dodli o'quvchilar ko'pligini alohida e'tirof lozim topdik.



Ayni damda bu yerga qatnayotgan

o'quvchilar 1030 nafarga, to'garaklar soni esa 50 taga yetgan. Shuning uchun ham Og'asaroy MFYda ushbu maktabning filiali ham tashkil etildi. Ijodiyot maktabi o'quvchilari o'tgan 2019-yilda ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritishdi. Jumladan, robototexnika to'garagi a'zosi, Chust tumanidagi

3-umumta'lim maktabining 5-sinf

o'quvchisi Otabek Obidov

Rossiya davlatining Nijniy

Novgorod shahrida bo'lib

o'tgan tanlov va o'quv

seminarida qatnashib,

tajribasi va bilimini

oshirib keldi. To'garak

rahbari Ma'rufjon

Mahkamov esa bu

o'quvchining ishlarini

boshqalarga namuna

qilib ko'rsatdi.

Yangi yil bayramida

ko'kka parvoz qilgan

dronlar sizning ham

havasingizni keltirgan bo'lsa,

ajabmas. Bunday dronlar

yasash, uning ishlash texnikasini

o'rganish aynan ijodiyot maktablarining to'garaklaridan boshlanadi. Mazkur maktabning raketamodel to'garagi a'zosi Rahmonjon Xoldorov raketamodel ko'rgazmalar nusxalari respublika ko'rik-tanlovida 3-o'rinni egalladi. Bundan u aslo xafa bo'lgani yo'q, aksincha, u bor imkoniyatlarini ishga solib, navbatdagi tanlovlarga astoydil tayyorgarlik ko'rmoqda.

Onasiga havas qilib qo'lga igna-ip ushlagan qizlar borki, tikish-bichishga qiziqadi. 64-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Mahliyo Ne'matjonova ham milliy, ham zamonaviy liboslarning dizaynini yaratishga qiziqadi. Shu

bois ham uning liboslari «Ijodkor bolalar» ko'rik-tanlovida 3-o'ringa munosib topildi. Bundan ilhomlangan chevar qiz yanada ko'proq izlanishga, keyingi bellashuvlarda oliy o'rinlarni egallashga ahd qildi.

Chust tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Zarnigor Abdullayeva esa do'ppido'zlikka qiziqadi.

– Do'ppilardagi har bir naqsh sirdan qaraganda shunchaki bir gul, yaproq shakliga o'xshasa-da, ularning har birida o'ziga xos ma'no mujassam, – deydi Zarnigor. Hunarmand qizning rango rang do'ppilari «Milliy qadriyatlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli o'rinlarning birini egalladi.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

– Do'ppilardagi har bir naqsh sirdan qaraganda shunchaki bir gul, yaproq shakliga o'xshasa-da, ularning har birida o'ziga xos ma'no mujassam, – deydi Zarnigor. Hunarmand qizning rango rang do'ppilari «Milliy qadriyatlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli o'rinlarning birini egalladi.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

– Do'ppilardagi har bir naqsh sirdan qaraganda shunchaki bir gul, yaproq shakliga o'xshasa-da, ularning har birida o'ziga xos ma'no mujassam, – deydi Zarnigor. Hunarmand qizning rango rang do'ppilari «Milliy qadriyatlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli o'rinlarning birini egalladi.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

«Hunar, hunardan rizqing unar», deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Bolalikdanoq bu naqlning mag'zini chaqishga urinayotgan ushbu ijodiyot maktabi o'quvchilariga kelgusi bellashuvlarda omad tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



O'G'LONLAR

Vatanga qo'yib ixlos,
Ajodlarga bo'lib mos,
Yovlardan aylar xalos,
Yurtiga yor o'g'lonlar.

Fido qilib jonini,
Baxsh etar iymonini.
Qo'riqlar qo'rg'onini,
Yurtiga yor o'g'lonlar.

Osmonida kabutar,
Tinchlik nomidan xabar.
Tuproq'in sevib yashar,
Yurtdan kechmas o'g'lonlar.


Diyora BAXTIYOROVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi

HARBIYLAR KUNI

O'ylab chiqdim akamni,
Bu kecha tuni bilan.
Tabriklayman men sizni,
Harbiylar kuni bilan!

Ko'p so'zlarni o'yladim,
Topolmadim qiyosin.
Bag'ishlayman akamga,
So'zlarimning dunyosin.

Nazokat ULUG'BEKOVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



JASUR AKA BO'LAMAN


«Ona Vatanni sevib,
Tinchligin asra mudom»,
Deya o'git beradi,
Mehribon, dono bobom.

O'g'itdan ilhom olib,
Izlanaman, o'qiyman.
Harbiy akalarimga,
Ba'zan she'rlar to'qiyman.

Ular mard va pahlavon,
Yurt ishonchin oqlaydi.
Dushmanning holi yomon,
Ko'rsalar bas, «boplaydi».

Men ham ularday botir,
Jasur aka bo'laman.
Hozirdan tayyorlanib,
Kuch-quvvatga to'laman.

Jasurbek PO'LATOV,
Mirzaobod tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi



MEN SENI JIMGINA SEVAMAN, VATANI!

Havoyi so'zlarni bilmayman rosti,
Tuyg'uni she'r bilan etarman xalos.
Vatan deb dunyoga hayqirmayman va,
Men seni jimgina sevaman, xolos!

Kamola PO'LATOVA,
Chirchiq shahridagi 13-umumta'lim maktabining 11-«V» sinf o'quvchisi

Vatanjon, aylanay qaroqlaringdan,
Bargdagi shudringday titradi jonim.
Kalima aytgandek poklandim har gal,
Nomingni eslasam O'zbekistonim.

Bilsang, onam tuproq, otam shu zamin,
Xokisor bo'lmoqlik ulardan yuqqan.
Qara, men o'shaman to'qqiz oyida,
Vatan deb ilk bora allani uqqan.

Eslay olasanmi kalishim poyin...
O'ng bilan chapini alishtirganim.
Bir ko'zimni qisib osmonga boqib,
Oy bilan yulduzni solishtirganim.

Onam non yopsalar kulcha yopardi,
Kulcha sedanasi sepkilimday ko'p.
Shokarim bobomning gulni sindirgan,
Men emas, amakim olib bergan to'p.

Kimni shoir qildi ko'hna majnuntol,
Kim esa dalada kamolga yetdi.
Mening hislarimni majnuntol emas,
Sening muhabbating opichlab ketdi.

MENING BOBOM

(Xalq ta'limi faxriysi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibi,
bobom Yunus XOLMO'MINOVga)

Mening bobom-chi, bu yil,
To'ldilar yetmish yoshga.
Quvonchlari bir jahon,
Yetar Oy-u Quyoshga.

Sevinchimning boisi,
Gullab-yashnasin jahon.
Baxtimizga sog' bo'lib,
Yuzga kiring, bobojon!



Dilnavoz YUNUSOVA,
Surxondaryo viloyati, Muzrabot tumanidagi 56-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchisi

Asadbekning darsga kechikib kelish, ba'zan haftada bir-ikki kun dars qoldirish odati sira qolmasdi. Sinf rahbarining davomat masalasida uning ota-onasini bezovta qilishi foyda bermadi. Shu sabab, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Botir aka va sinf rahbari uni maktabning ichki ro'yxatiga olishga majbur bo'lishdi. Bu noxush xabarni eshitgan Muqumjon aka qattiq ranjidi. O'g'ildan xavotirga tushib, uning tarbiyasiga, o'qishiga yanada mas'uliyatli bo'lishga harakat qila boshladi. Keyingi paytlarda onasining sog'lig'i yomonlashgani, ro'zg'ordagi yetishmovchilik, oila a'zolarining kayfiyatini kuzatgan Asadbek esa shunday vaziyatda ota-onasiga qo'shimcha tashvish orttirganini his qilib, xatosini tushunib yetdi. Ayniqsa, onasining sog'lig'iga achingan qahramonimiz sinf rahbari, maktab psixologi, uyda otasi va akasining pand-nasihatlarini tinglab, ularga amal qila boshladi. Dars qoldirmaslikka, kechikmaslikka harakat qildi.

Shu orada maktab faollari zalida bir tadbir o'tkaziladigan bo'ldi-yu, sinf rahbari Asadbekka

ana shu bayramda ishtirok etishni taklif etdi. Binoyidek ovozi borligi bois, u qo'shiq aytadigan bo'ldi.

ICHKI RO'YXAT

(Hikoya)



Bayram kuni esa maktabdoshlari uni olqishlashlar ekan, bolaning ko'nglida allaqanday tuyg'ular tug'ildi. Buni qarangi, bu tadbirga

o'qituvchilar Asadbekning ota-onasini ham taklif qilishgan ekan. Sahna-da o'z iste'dodini namoyon qilgan o'g'liga ko'zi tushgan ota-onaning ko'zleri quvonchga to'ldi. O'g'il ham quvonchini yashira olmadi. Zero, Asadbek o'zi biroz dangasa va o'yinqaroq bo'lsa-da, ota-onasini ranjitishni sira istamas edi. Bayram nihoyasiga yetgach, ustoz Muqumjon aka va uning ayoliga yuzlanar ekan, ularning nigohlaridagi savolni his etib, dedi:

– Endi bundan buyog'iga maktabdoshlariga faqat o'rnak bo'lishga harakat qiladigan, yaxshigina iste'dodli o'quvchim borligidan faxrlanaman, – deya Asadbekka mehr bilan qaradi. Shu kundan maktabning ichki ro'yxatidan o'chgan bolaning fe'lidan ham yomon odatlari o'chib ketganday bo'ldi.



Mohin OMAROVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



JAJJI CHEMPION

Bir sport turi borki, u bilan shug'ullanmagan bolaning o'zi yo'q, desam, ishonasizmi?! Ha, bilamiz, bu barchamiz sevib o'ynaydigan shaxmat-shashka o'yini, deysizmi! To'g'ri topdingiz. Orangizda shunday bolalar ham borki, bu sport turi bilan shunchaki emas, muntazam shug'ullanib, yutuqlarga erishishga ham ulgurishgan.

Sergeli tumanidagi 300-umumta'lim maktabining endigina 1-«I» sinfida tahsil olayotgan Rasul Salimovni jajji chempion, deb atash mumkin. Bolakay, mana ikki yarim yildirki, shaxmat klubida murabbiyi Sirojiddin aka Zaynitdinovdan aqliy sport turining sir-u sinoatlarini o'rganib kelmoqda. Tengdoshingizning aytishicha, har bir mashg'ulot orqali u o'yinning turli uslub va strategiyasini egallash barobarida, diqqatni jamlashni, irodali, mehnatsevar bo'lishni ham o'rganib bora-yotgan ekan. Kechki payt esa uy vazifalarini bajarib bo'lgach dadasi bilan shaxmat o'ynashni odat qilgan ekan.

Shu kungacha shaxmat bo'yicha o'tkazilgan 24 ta musobaqada ishtirok etgan yosh shaxmatchi bir qancha medallarni qo'lga kiritibdi. Bundan tashqari, Rasulbek bo'sh vaqtlarida turli bolalar ensiklopediyalarini o'qishga qiziqar, ayniqsa, dinovavlarga oid ma'lumotlar uni hayratga solar ekan.

Kelajakda norvegiyalik jahon chempioni Magnus Karlsen va yurtdoshimiz Islombek Sindorov bilan shaxmat o'ynashni orzu qilgan yosh shaxmatchimizning niyati amalga oshishiga tilakdoshmiz.

QIZLARXON

Har bir bolakay harbiylarining kiyimini kiyib ko'rishga havas qilishi tayin. Suratda ko'rib turganingizday, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-DIUMning 2-«F» sinf o'quvchilari maktabda bo'lib o'tgan «O'zbekiston yagona uyimiz» nomli tadbirida o'zlarini xuddi yosh askarlarday his etishdi. Ustoz Tamara opa Ahmedova boshchiligida o'tkazilgan bayram bo'lajak askarlarni vatanparvarlikka chorladi. Undan olingan fotolavhani esa sizning ham e'tiboringizga havola etishni lozim topdik.



Futbol ko'pchilikning sevimli o'yini ekanligini, ushbu sport turi 1896-yilda Olimpiya o'yinlari ro'yxatiga kiritilganligini Pele, Maradona, Zenidin Zidan, Ronaldino kabi mohir futbolchilar qatorida Temur Kapadze, Anvar G'ofurov, Viktor Karpenko, Ulug'bek Baqoyev, Maksim Shatskix, Birodar Abduraimov, Mirjalol Qosimov, Vadim Abramov, Gennadiy Krasnitskiy kabi futbolimiz yulduzlari ham terma jamoamizning muvaffaqiyatlarga erishishida o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan va qo'shmoqdalar.



MAHALLAMIZGA FUTBOL YULDUZI KELDI

Angor tumanidagi Yuqori Tallimardon mahallasida o'zbek futbolining yana bir yorqin yulduzi, O'zbekiston Milliy terma jamoasi a'zosi hamda Rossiyaning «Rostov» futbol klubi hujumchisi Eldor Shomurodov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda mahalla faollari, deputatlar, sportchilar va 14-, 15-, 17-umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirok etishdi. 14-umumta'lim maktabi o'quvchisi Abdilaziz Allayorov, 17-umumta'lim maktabi o'quvchisi Ramazon Xo'jamberdiyev kabi futbol ishqibozlarining

taniqli futbolchiga beradigan savollari ko'p bo'ldi. Sportchimiz savollarga bajon-u dil javob berarkan, jumladan shunday dedi:

– Bugun mustaqil O'zbekiston futbolining rivoji yanada baland cho'qqiga chiqish arafasida turibdi. O'zbekiston Milliy terma jamoasi futbol bo'yicha eng nufuzli musobaqa sanaladigan jahon chempionatiga chiqish uchun juda puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Sportchimiz Eldor Shomurodov birinchi murabbiyi otasi – Azamat Shomurodov bo'lganligini, 11 yoshidan boshlab Muborakning «Mash'al» futbol klubi akademiyasida tahsil olganligini, O'zbekiston milliy terma jamoasi safida, jahon chempionatlarida ishtirok etib, chiroyli o'yinlar ko'rsatish orzusida ekanligini aytdi. Tadbir yakunida barcha futbol ishqibozlari uchun mahorat darsi o'tib berdi.

Mahorat darsini katta qiziqish bilan tomosha qilgan ishtirokchilar tadbir tashkilotchilaridan biri mahalla raisi Rahmiddin Eshonovga minnatdorlik bildirdilar.

**Davlat XO'JAYAROV,
Suxondaryo viloyatining
Angor tumanidagi 17-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi**

USTOZLARNING QUVONCHI CHEKSIZ

O'tgan yilning 19–22-dekabr kunlari sportning Osiyo o'yinlari dasturidan o'rin olgan Ushu Sa'nda yo'nalishi bo'yicha Qozog'istonning Chimkent shahrida 10 yosh va undan kattalar o'rtasida bo'lib o'tgan xalqaro turnirda viloyatning 8 nafar sportchilari O'zbekiston Respublikasi Ushu federatsiyasi terma jamoasi safida ishtirok etishdi.



Quvonarlisi, qatnashchilarning deyarli barchasi 1-o'rinni egallashdi. G'oliblar qatorida Uchko'prik tumanidagi 6-umumta'lim maktabi 4-sinf o'quvchisi Behruzbek Xidirov 33 kg vaznda, 10–11 yoshli sportchilar o'rtasida hamda 31-umumta'lim maktabidan Odilbek Rahmatov 12–14 yoshlilar o'rtasida 48 kg vaznda, 3-umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchisi Muhammadrizo Shuhratov 12–14 yoshli sportchilar o'rtasida 33 kg vaznda, buvaydalik Shukrullo O'rmonov, So'x tumanidan Muslihidin Mirojiddinov va Iqboljon Vahobjonov o'z vazn toifalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ushbu musobaqada federatsiya terma jamoasidan ishtirok etgan 12 nafar sportchi sovrindorlar qatoridan joy oldi.

– Ushbu natijalarni qo'lga kiritish uchun 2 oydan ziyod stadiona tinimsiz mashg'ulot olib bordik, – deydi Baxtiyor Xoldorov. – Mehnating samarasini ko'rganda bor charchog'ing chiqib ketar ekan. Shogirdlarimiz murabbiylar mehnatini oqladi!

Endilikda sportchilar Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan viloyat birinchiligiga tayyorgarlik ko'rishmoqda.


Nurbek QIDIRALIYEV

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

**«AZIZ DIYOR POSBONLARI»
TOPQIRLIK MASHQLARI**

Aylanma krossvord. Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:

1. Vatan posboni, harbiy xizmatchisi. 2. Milliy sportimiz. 3. Reaktiv kuch ta'sirida otiladigan snaryad. 4. Suyuq holdagi yuklarni tanklarda tashuvchi maxsus kema. 5. Dushman hududiga tushirilgan qo'shin. 6. Harbiy dengiz floti xizmatchisi. 7. Janubiy sarhadlarimizdagi viloyat markazi. 8. Aka-uka nemis muhandislari ixtiro qilgan avtomat to'pnoncha. 9. Dunyo tomonlarini ko'rsatuvchi asbob. 10. Harbiy xizmatda birga bo'lgan kishilar. 11. Olini ko'rsatuvchi optik asbob. 12. O'qotar qurollar milining o'lchovi. 13. Bir necha dviziya yoki brigadadan iborat yirik harbiy qo'shilma. 14. Kemaning gorizontol holatda taxta qoplangan sahni. 15. Yirik hududiy harbiy birlashma. 16. Himoyalovchi bosh kiyim. 17. Uchish apparatlarining yerdan ko'tarilish joyi va payti. 18. Davlatning suvda va quruqlikda qo'riqlanadigan maskani. 19. Artilleriya, tank va qo'shinlar ortilgan poyezd. 20. Zafar, muvaffaqiyat. 21. Harbiy mutaxassislikka yo'naltirilgan litsey faoliyat olib borayotgan Xorazm viloyatidagi shahar. 22. Tantanali kun. 23. Davlat ramzi. 24. Yuqori darajadagi kuch-quvvat. 25. Miltiqning barcha qismlarini tutib turuvchi va otish oldidan yelkaga tirab turiladigan qismi. 26. Harbiy kuchlar va jangovar texnikani dushman o'tidan pana qiluvchi harbiy inshoot, chuqur kavlangan joy. 27. Suvosti ishlarini bajaruvchi. 28. Vatanimiz harbiylari faoliyati yoritilgan teleserial. 29. Mohir o'qotar. 30. To'p, zambarak stvoli o'rnatilgan dastgoh.



KRIPTOGRAMMA

Kalit so'zlar:

1. Davlatning qurolli kuchlar majmui - 16, 13, 5, 9, 11.
2. Maxsus bo'linmalardan iborat harbiy qism - 12, 1, 4, 1, 8, 3, 11.
3. Himoyalashga tayyor shijoatli holat - 14, 1, 11, 19, 3, 2, 1, 6.
4. Uzun stvolli, quruqlik va suvdagi yoki havodagi nishonlarga zarba beruvchi artilleriya quroli - 4, 1, 11, 18.
5. Kemalarga yo'l ko'rsatish vositalari jihozlangan minora - 10, 1, 15, 3, 16.
6. Artilleriya snaryadi turi. - 19, 6, 1, 11, 1, 4, 1.
7. Samolyotni eng muvofiq yo'l tanlab boshqarib boruvchi mutaxassis - 5, 4, 17, 6, 10, 1, 11.
8. Maqoldan: «... maydonda sinaladi» - 10, 1, 6, 7.

Endi kalit so'zlari javoblari orqali shaklning o'ra qismidagi raqamlarda yashiringan kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan Qurolli Kuchlar faxriysi, shoir Iskandar Rahmon qalamiga mansub «Assalom, armiyam, ulug' ostonam!» she'ridan ikki misra bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

**BO'LAJAK BEKALARGA
FOYDALI
MASLAHATLAR**

Aziz qizlarjon! Bugun yana foydali maslahatlarimiz bilan o'rtoqlashmoqchimiz. Tavsiyalarimiz sizga ma'qul kelsa, bundan xursand bo'lamiz:

1. Eng yaxshi ko'rgan pyobazalingizni qirib oldingizmi? Afsuslanmang. Bunda sizga oddiygina tish pastasi yordamga keladi. Tish pastasini qirilgan joyga biroz surib qo'ying, so'ngra yumshoq, ketidan nam mato bilan arting. Qirilgan joy aslo ko'rinmay ketadi.

2. Go'sht, piyoz yoki baliqdan so'ng taxtakachigiz hidlanib qoldimi? Uni darrov kirsovun bilan yaxshilab yuving-da, limon bilan arting, so'ngra mikroto'lqinli pechga bir daqiqaga qo'ying. Ana endi limon iforli taxtakachigiz oshxonada xushbo'y is tartib turadi.

3. Vazadagi mevalaringizni yangi uzilgandek saqlashni istaysizmi? Ularning orasiga bir dona limon solib qo'ying.



4. Chovgumingizni ichi oqarib ketdimi? Aslo kayfiyatingizni tushirmang. Uni sirka va suv 1:1 yordamida tozalashingiz mumkin.

5. Devor yoki derazalaringizga yopishtirgan stikerlaringiz ko'chmayaptimi? Uni soch quritgichning yordamida osongina ko'chirishingiz mumkin.

6. Shamollash alomatini sezyapsizmi? Oyoqlaringizni osh sodasi solingan issiq suvda vanna qiling. Keyin komforka yoki spirt bilan yaxshilab ishqalab, paypoq kiyib oling.

7. Burningiz bitib qolsa, besh oshqoshiq tuzni tovada qizdirib, paxta tolali matoga soling-da, peshonangiz yoki ikki qoshingiz o'rasiga qo'ying. Bitgan burun bir zumda ochiladi.

8. Shamollagan organizmga piyoz birinchi yordam hisoblanadi. Uni o'rtasidan ikkiga bo'lib, chuqur nafas bilan ichingizga torting. Piyozning achchiq hidi viruslarni o'ldirib, bitgan burun va tomog'ingizni ochadi.

NARGIZA tayyorladi